

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжоновна Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилятхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA

To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Ergasheva Go'zal Barot qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zomin tumanida turizmning shakllanishi hamda takomillashib borayotgan tarmoqlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Zominning o'ziga xos tabiati, tumandagi rivojlanayotgan turizm turlari, sohada mavjud imkoniyat va muammolar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: turizm, ekoturizm, gastroturizm, etnoturizm, tibbiyot turizmi, rafting, zeplayn, rekreatsion hudud, qo'riqxonalar, milliy bog', turizm mahallasi.

ON THE DEVELOPMENT OF TOURISM INDUSTRY IN ZAMIN DISTRICT

To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi

Teacher at Jizzakh State Pedagogical University

Ergasheva Go'zal Barot qizi

Student at Jizzakh State Pedagogical University, Faculty of History

Annotation. This article discusses the formation of the system in the Zamin district and the unique nature of Zamin, the types of tourism developing in the district, and the opportunities and problems in the industry are also described.

Keywords: tourism, ecotourism, gastrotourism, ethnotourism, medical tourism, rafting, zipline, recreational area, reserve, national park, tourism neighborhood.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i2/n11>

Bugungi kunda respublikamizda barcha yo'nalishlarda keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, turizm sohasida ham. Hukumat miqyosida qabul qilinayotgan turizm istiqbollariga oid qarorlar islohotlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [1] PF-5611-son Farmoni qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, turizm turlari, shakllari va ularning institutsional asoslari belgilab berilgan.

Turistik qishloq ovullarini yaratish yo'nalishlari va uning institutsional asoslari hamda hududlar kesimida turistik qishloq zonalarini yaratish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan. Turistik mehmon uylarini tashkil qilishning institutsional asoslari yaratilgan. 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi [2] Qonuni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasidagi turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [3] PF-5781 son Farmoni sohani yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur vazifalarga ko'ra, 2019-yil 1-noyabrdan boshlab, eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari (shaharcha, qishloq, ovul, hamda shahar va shaharchalar, qishloq va ovullarining mahallalari) ro'yxatini shakllantirish, ushbu fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 dan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari tashkil etish chora-tadbirlari ko'rilgan. Va bu

turistik hududlarda tashrif buyiruvchilar uchun 5 xil xizmat ko'rsatish turlari ishlab chiqilgan. Ular: yashash, ovqatlanish, dam olish va boshqa xizmatlardir. Turistlar uchun "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i", yoki "Turizm ovuli" maqomi berilgan fuqarolar yig'inlari "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlarida birinchi navbatda, kiritilishi qat'iy belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida turizmni takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli islohotlarning hududlardagi ijrosi ham bosqichma-bosqich ta'minlanib bormoqda. Ana shunday turizm rivojlanib borayotgan hududlardan biri - Zomin tumanidir. Tumanning madaniy, tarixiy merosi hamda xushmanzara tabiati - uzoq yillardan buyon sayyohlarni o'ziga chorlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6 apreldagi "Zomin turistik-rekreasion zonasi faoliyatini hamda xalqaro umummavsumiy tog'-changi kurortini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6201son Farmoniga muvofiq belgilangan asosiy qoidalaridan kelib chiqib, Zomin turistik-rekreasion zonasini yaratish va rivojlantirish, shuningdek ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish nazarda tutilgan. Bu hudud hozirgi kunga kelib, ancha takomillashib, o'z turistlari ega bo'lmoqda[4].

Zomin tumanida turizmning ko'pgina turlari: ekoturizm, etnoturizm, gidroturizm, tibbiyot turizmi, gastroturizm kabi yo'nalishlar, shuningdek, tog' chang'i sporti, zeplayn, rafting kabi yo'nalishlar ham rivojlanib bormoqda. Yuqorida sanab o'tilgan turizm turlarining aksariyati rivojlanishida, hududning o'ziga xos joylashuvi va tabiiy boyliklari sababdir.

Tumanning relyefi xilma-xil bo'lib, tekisliklar, adirlar, tog' yonbag'ri va tog'larning o'zaro mujassamlashganligini ko'rish mumkin. Turkiston tog' tizmasi va uning davomi bo'lgan Molguzar tog'lari o'ziga xos iqlim va tabiat manzaralarini vujudga keltirgan[4]. Mazkur tog' yonbag'rlaridan bir nechta soylar oqib keladi. Jumladan, Zominsoy, Achchisoy, Peshag'orsoy, Uvolsoy, Turkman, Jaloir va Xo'jamushkensoy kabilarni ta'kidlab o'tish mumkin. Bu soylar Zomin gidroturizmi rivojlanishiga yordam bermoqda. Soylar orasida eng kattasi- Zominsoy bo'lib, uzunligi -58kmdir. Havzasi-700km hisoblanadi. Zominsoy va mavsumiy suvlaridan ratsional foydalanish maqsadida 1986-yilda Zomin suv ombori qurib ishga tushirildi. Zomin tumanining suvga bo'lgan ehtiyojining ma'lum qismini qondirishda, Zomin suv ombori muhim sanaladi[5].

Zomining tashrif buyiruvchi sayyohlar tumanning tog'lik qismiga chiqish yo'lida, albatta Zomin suv omboriga to'xtab o'tadi. Va Ombor yaqinida joylashgan Zomin qurtlari va gihohlaridan xarid qilishadi. Mazkur kichik savdo rastalarini, yaqin yillarda o'ziga xos turistik savdo markaziga aylantirish bo'yicha istiqbolli rejalar ishlab chiqilmoqda.

Jizzax viloyatida turizm klasterlarining asosi poydevori bo'lgan Zominning o'ziga xos turizm hududlaridan biri -1976-yilda tashkil etilgan 48ming gektarga ega Zomin Milliy bog'idir. Milliy bog' va Zomin davlat qo'riqxonasi hududi va undagi tabiat manzaralari - Zominning ekoturizm asosini tashkil etadi. Mazkur bog' - dengiz sathidan 4000 metrgacha balandlikda joylashgan. Zomin milliy tabiat bog'i Turkiston tog' tizmassda joylashgani bilan turistlar bu yerga albatta kelishlari uchun qiziqish uyg'otmoqda. Zomin milliy tabiat bog'i Turkiston tog' tizmasining shimoliy yonbag'rida Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumani hududlarida joylashgan. Uning maydoni 24.110gani tashkil etadi. Dengiz sathidan 1000m dan to 4033m gacha balandlikda bo'ladi. 2009-yilda olib borilgan ishlar, o'tkazilgan tahlil natijalari avvalgi ma'lumotlar bilan taqqoslanibgina qolmasdan, uning inson va xo'jalik uchun ahamiyati kattaligida bilan ajralib turadi[6].

Zomin Milliy bog'iga tutashib ketgan noyob tabiat asari - bu Zomin davlat qo'riqxonasidir. Zomin tog' o'rmon qo'riqxonasi - Pomir Oloy tog' tizmasiga kiruvchi, Turkiston tizmasining g'arbiy va shimoliy yon bag'rida joylashib, qo'riqxona Turkiston tog'lari janubiy-sharqiy qismini suv bilan o'rab turgan daryo Boyqo'ng'irsoy bilan, shimoliy chegarasi esa katta tog' tizmasiga ya'ni Molguzar bilan o'ralgan.

XIX asrning 50-yillarida rus olimi A.P. Fedchenko tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, O.E. Knorring XX asrning boshlarida o'rmon xo'jalik ishlarini tashkil etish uchun - u ishni Sangzor, Baxmal va Zomin o'rmon xo'jaligiga rahbarlik qiladi va Zomin o'rmon dachasini yaratadi.

1959-yilga kelib Zomin qo'riqxonasi to'liq tashkil topgan bo'lsa, uning umumiy maydoni 15600 ga yetadi. 1978-yil umumiy maydoni 31500ga yetib, hozirgi paytda 26848ga ni o'z ichiga oladi. Zomin qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Davlat o'rmon qo'mitasi qoshidagi ov xo'jaligi, qo'riqxonalar va milliy bog'lar boshqarmasiga qarashli hisoblanadi. G'arbiy Turkiston tog'larining shimoliy yonbag'rida, Zominsuv daryosi havzasida joylashgan Zomin o'rmon xo'jaligining tarkibiga Zomin yer maydoni, O'rmon xo'jaligi institutining Ko'lsay tayanch punkti, Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi kiradi[7].

Hozirda qo'riqxonaga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Buni statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Zomin tumaniga insonlar faqat turist sifatida sayohat uchun emas, balki davolanish, sog'lomlashish, qiziqarli joylarda zavq olish va qator boshqa sabablar bilan ham tashrif buyuradi. Bu esa, tumanda tibbiyot turizmini yangi pog'onaga ko'tarmoqda. Buni isboti tariqasida sayyohlarning davolanib, shifo topib ketganini misol qilib keltirish mumkin. Tabiiy davolash kurslari orqali turistlarni shifo topib ketishida, yoki insonlarning salomatligini yaxshilashda - tumandagi Zomin sihatgohining alohida o'rni bor. Bu maskanga turli viloyatlardan, shuningdek, xorijdan insonlar kelib davo topib ketishadi.

Zomin tumanida ziyorat turizmining ham tobora rivojlanib borayotganligini ko'rish mumkin. Bunga avvalo, ziyorat turizmini takomillashtirishga oid qaror va farmonlarning tumandagi ijobiy ijrosi sabab bo'lmoqda. Ziyoratgohlarda turistlarga zamonaviy shart-sharoitlar yaratish, avvalo ziyoratgohlarning umumiy ahvolini yaxshilash va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan islohotlar samarasi demakdir. Sanab chiqilsa, aslida tumanda ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar ko'p. Ammo, birgina misol keltirsak, Zomin tumani, Kultepa qishlog'ida bir ziyoratgoh bor. Bu ziyoratgoh tumanning ziyorat turizmini yaxshilashga birmuncha hissa qo'shib kelmoqda. Mahalliy aholi orasida mazkur ziyoratgoh haqida bir necha afsona va haqiqatlar saqlanib qolgan. Jumladan: ..."Zomin mavzalaridan birida dunyoga kelgan Abdulkarim ismli inson Namanganda XIX asrning o'rtalarida Mag'zubi Namangoniy maktabiga o'qishga boradi[8]. Abdulkarim 8 yil davomida maktabda og'ir yumushlarni bajarish bilan bir qatorda tinimsiz bilim olib, Islom arkonlari va tibbiyot ilmini mukammal egallaydi. Mag'zubi Namangoniy ilm dargohi dovrug'i turli joylarga tarqalgan edi. O'sha vaqtda Samarqanddan imom jo'nating degan noma keladi. Shunda Mag'zubi Namangoniy shogirdlariga " Bizning oldimizga kim bir g'alvir suv olib kelsa, shu Samarqandga imom qilib jo'natiladi deydi. Uning qo'lida yigirma yildan ortiq ta'lim olgan shogirdlari qila olmagan bu ishni, Abdulkarim amalga oshiradi. Mag'zubi Namangoniy shogirdi Abdulkarimga hujjat to'g'rilab, muhr bosadi. Va oq tuyay berib, shu tuyay qayerga cho'ksa o'sha yerda qirq kun chilla o'tirib ketaver deydi. Yo'lga chiqqan Abdulkarim tuyasi Kultepa qishlog'iga yetganida, hozirgi g'or oldida cho'kadi. Abdulkarim shu yerda g'or kovlab (yoki mavjud g'orda) 40 kun chillada o'tiradi. Mahalliy xalq orasidagi yaradorlar, dardmand kishilar uning oldiga kelib, undan shifo topadilar. Shu qishloqdan ketgach, u chillaxona qilgan maskanni - mahalliy xalq o'zlari uchun muqaddas qadamjoga aylantiradi. Garchi bu afsona xalq orasida tildan tilga o'tib kelgan bo'lsada, uning zamirida haqiqat yotibdi. Sababi g'ordan mahalliy aholi tomonidan topilgan ashyoviy buyumlar jumladan, Janob eshon xalifa Abdulkarim Domullo Barotga tegishli qadimiy qissa va qo'lyozma hujjat ham topilib, hujjatdagi ma'lumotlarda "Qo'qon xoni Xudoyorxon (1845-1875) ismini mavjudligiga asoslanib bu hujjatning tuzilish sanasi 1845-yildan keyingi davrga oid" degan xulosaga kelish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga jo'natilgan tarixiy hujjatga institut katta ilmiy xodim izlanuvchilari S. G'ulomov va S. Muhammadjonovlar tomonidan (13.11.2017) javob xati tarzida yozilgan qisqa tavsifda Zomin tumani Kultepa qishlog'idagi g'ordan topilgan

topilma haqida“Abdulkarim bobo g'orda Qur'on oyatlari va Imom Buxoriyning hadislarini chilla qurib yod olgan. Ibn Sinoning xalq tabobati kitoblarini o'qib o'rganib sharqona usulda odamlarni davolagan. U kishiga muhr bilan tasdiqlangan hujjat ham berilganligi ko'rsatilgan. G'orning tarixi shifo va ma'rifat oluvchilar uchun bir ziyorat maskani ekanligi ma'lum degan so'zlar bitilgan. Hozirda ziyoratgoh g'ori og'zida ajoyib kichik gumbazli xonaqoh qad rostlagan. Ziyoratgoh oldida shu nom bilan ataluvchi masjid ham mavjud. Xuddi shu kabi tumandagi boshqa ziyoratgohlar ham o'z tarixiga ega. Jami, 109 ta moddiy me'ros obyektlari mavjud bo'lib, shundan, 73 tasi arxeologiya, 33 tasi arxetektura va 3 tasi monumental yodgorliklar sanaladi[9].

Tumanda rivojlanib, xorijliklar e'tiborini jalb etib borayotgan turizmning tarmoqlaridan yana biri - gastro turizm demakdir. Gastro turizmi bu - mahalliy taomlarni tatib ko'rish, ovqat tayyorlash va o'sha taom orqali hududning milliy an'ana va urf-odatlarini his etishdir. Gastro turizmida Zominning tandir go'shti va patiri o'ziga xos hisoblanib, mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun alohida e'tirofga sazovor bo'lmoqda. Gastronomik turizm, xususan, Zomin tandiri va patiri xorijiy sayyohlar e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Shu bois, 2025-yil Zomin patiri 20-geografik hududni anglatuvchi gastro belgi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan[10]. Tumanning boy tabiiy resurslariga tashqi ta'sir etmagan holda, ulkan turizm salohiyatidan samarali foydalanish darkor. Ammo, tumanda turizm infratuzilmasi yetarli darajada rivojlandi deyish mushkul, chunki hududda turistlarni qiynab kelayotgan muammolar ham mavjud. Masalan, turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining pastligi va sonining chegaralanganligi, transport xizmati, restoran va ovqatlanish shaxobchalarining kamligi, mehmonxona narxlarining ichki turistlar uchun yuqori ekanligi kabi sabablar shular jumlasidandir. Biroq, sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun bosqichma-bosqich islohotlar qilinmoqda. Maqsad – tumanga yurtimiz va xorijiy sayyohlar tashrifini oshirishdan iborat.

Xulosa qilib, aytganda Zomin tumanida turizmni rivojlantirish ishlari o'z natijasini berib, tuman, viloyat va respublikamizni dunyoga namoyon etgan holda iqtisodiyotini yaxshilashda, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashda va yangi ish o'rinlari paydo bo'lishida ijobit ta'sir etib kelmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlanishtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 5611-son Farmoni//lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi Qonuni//lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasidagi turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 5781-son Farmoni//lex.uz
4. Musurmonqulov Farrux "Zomin tumani geografiyasi" 2021-yil. 4-5-betlar.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.–Toshkent.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – B. 32.
6. Qodirov O, Xasanov X, O'ralov X. Central Asian research journal for Interdisciplinary studies Zomin suv omboridagi gidrotexnika inshootlarining loyihaviy parametrlari va texnik holati. 2022. 452-b.
7. Otamurodova Feruza "Jizzax viloyatida ekoturizmni rivojlantirishda suv havzalarining ahamiyati va rivojlantirish omillari". 2017-yil.52-bet
8. To'ychiyeva D. “Zomin tumani tarixiga oid ayrim mulohazalar”. // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – №6/3. –B. 129.
9. Dala tadqiqotlari. Zomin tumani Kultepa qishlog'i G'orbobo ziyoratgohi 2017-yil may.
10. Zomin tumani hokimligining joriy arxiv ma'lumotlari. 2020-yil.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.